

**TUPROQ UNUMDORLIGINI OSHIRISH VA ALMASHLAB EKISHNI TO‘G’RI JORIY
QILISH USULLARI**

Shamshidinova Mushtariy Pattojon qizi

And QXAI talabasi.

+99894-809-90-05 Elektron pochta: shamshidinovamushtariy@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14808622>

Annotatsiya. Ushbu maqolada tuproq unumdorligini oshirish, almashlab ekishni to‘g’ri joriy qilish, tuproq strukturasini yaxshilash, o‘g’itlar solish, sho‘rlanishini oldini olish, tuproqni qayta tiklash va unumdor tuproq qatlami hosil qilish uchun qilinishi lozim bo‘lgan ishlar bo‘yicha ilmiy ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tuproq, unumdorlik, struktura, o‘g’it, almashlab ekish, soya o‘simligi, tuproq qatlami, sho‘rlanish.

Аннотация. В этой статье изложено, что следует сделать для повышения плодородия почвы, правильного внедрения севооборота, улучшения структуры почвы, внесения удобрений, предотвращения засоления, восстановления почвы и создания плодородного почвенного слоя.

Ключевые слова: почва, плодородие, структура, удобрения, севооборот, соя, почвенный слой, засоление.

Abstract. In this article, there are things that should be done to increase soil fertility, properly introduce crop rotation, improve soil structure, apply fertilizers, prevent salinization, restore soil and create a fertile soil layer. Scientific information on

Key words: soil, fertility, structure, fertilizer, crop rotation, soybean, soil layer, salinity.

Kirish

Jahon hamjamiyati insonlarni tabiat ne’matlaridan oqilona, uning tabiiyligini buzmagan holda samarali foydalanishni taklif qilmoqda. Ulardan eng muhim tuproq hisoblanadi. Yer-cheoklangan va qayta tiklanishi uchun uzoq vaqt yillar kerak bo‘ladigan tabiiy resursdir. Dunyo miqiyosida unumdor tuproq qatlami antropogen omillar ta’sirida ifloslanayotgani, bugungi kunda sho‘rlanish, cho‘llanish jarayonlari kuchayotgani, suv va shamol erroziyasini tuproq unumdor qatlamlarini yemirilishiga sabab bo‘layotgani, qishloq xo‘jaligida foydalanilayotgan yerlarda unumdorlik va meliorativ-ekologik talablar yetarli darajada bo‘lmagani hamda tuproqning tanazzulga uchrashi kabi holatlari qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hosildorligini keskin kamayishiga

olib kelayotganligi va har xil chiqindilar bilan ifloslanishi, tuproqlar tarkibida ozuqa elementlarining kamayib ketishi kabi holatlar ushbu tabiiy resursga jiddiy havf solmoqda.

Dunyoning 110 dan ortiq mamlakatlarida tuproqlar tanazzulga uchrab, unumdorligini yo‘qotmoqda. Mamlakatizda sug’oriladigan tuproqlar 4.3 million gettarni tashkil qilib, ushbu yerlar respublikamizning “oltin fondi” hisoblanadi. Afsuski, ushbu maydonlarning 65 foizidan ko‘prog’i sho‘rlangan.

Yerlardan samarali va oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini tiklash, saqlash va oshirish muammolarini yechish uchun birinchi navbatda tuproqlar to‘liq miqdorda mahalliy o‘g’itlar kiritilishini ta’minalash lozim. Buning uchun bizda mahalliy chiqindilardan (go‘ng va boshqa organik va noorganik moddalar bilan aralashtirib tayyorlanadigan kompostlarni tayyorlash ko‘lamini kengaytirish imkoniyatlarini izlab toppish zarur.

Tuproq unumdorligini oshirishda dukkakli ekinlarning ham ahamiyati katta. Dukkakli don o‘simgilklarini almashlab ekish uchun alohida yer talab etilmaydi. Shuning uchun sug’oriladigan maydonlardan foydalanishning ichki imkoniyatlaridan biri takroriy ekin sifatida dukkakli don, xususan, soya va mosh yetishtirishni katta maydonlarda tashkil etish lozim. Dukkakli don ekinlarini yetishtirish orqali ularning potensial imkoniyatlaridan foydalangan holda bir qancha masalalarga ijobiy yechim topsa bo‘ladi.

Tuproq strukturasini saqlash uchun yana bir usullardan biri almashlab ekishni to‘g’ri joriy qilishdir. Shu usul orqali tuproq unumdorligi ortadi, sifati yaxshilanadi. Almashlab ekish-qishloq xo‘jalik ekinlarini dalalar va yillar bo‘yicha ilmiy asoslangan navbatlab ekish. Almashlab ekish-dehqonchilik tizimining eng muhim qismi hisoblanadi. Ekinlar tartibi va o‘z vaqt bilan belgilangan sxemada ekiladi. Agar biron ekin surunkasiga ekilsa tuproqning fizik xususiyatlari yomonlashadi, ekinlar hosildorligi pasayadi, begona o‘tlar ko‘payadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tuproq unumdorligi qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligini belgilashda asosiy omil hisoblanadi. Tuproq unumdorligini tiklash, saqlash va mutassil ravishda oshirib borish hayotiy zaruriyatdir. Har bir ekin strukturasi o‘ziga xos o‘sish, rivojlanish va oziqlanish me’yoriga ega, u o‘zidan keyin tuproqqa olib chiqib ketilgan ozuqa moddalar bir qismining o‘rni to‘ldiriladi. Bunga esa almashlab ekishni to‘g’ri joriy qilish orqali erishiladi.

REFERENCES

1. Tuproq unumdorligini saqlash, oshirish va ekologik holatini yaxshilashning mahalliy imkoniyatlari.

2. Wikipedia.org
3. Bekzod Umarov Baxtiyorjon o'g'li, Shamshidinova Mushtariy Pattojon qizi "Grunt suvinining hosil bo'lishi va gidrogeologik jihatlari"
4. Mutaxassis tayyorlashda kasbiy psixologiya fanining o'rni va ahamiyati AQXAI assistenti - Bekzod Umarov Baxtiyorjon o'g'li
5. Bekzod Umarov Baxtiyorjon o'g'li, Shamshiddinova Mushtariy "Grunt suvining ekologiyaga salbiy ta'siri"
6. B. Umarov - Eurasian Journal of Research, Development and..., 2022